

## **O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQUISHNING METODIK ASOSLARI**

**Mahkamov M.D.,**

*ADPI "Tarix" kafedrası katta o‘qituvchisi*

*Email: [mmaxkamov@gmail.com](mailto:mmaxkamov@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Maqolada oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlari orqali tarixiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** oliy ta’lim, O‘zbekiston tarixi, mustaqil ta’lim, tarixiy tafakkur, metodika, didaktika, kompetensiya, manbashunoslik, reproduktiv izlanish, ARM (axborot-resurs markazi).*

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития исторического мышления и формирования профессиональных компетенций студентов в процессе разработки заданий для самостоятельной работы по дисциплине «История Узбекистана» в высших учебных заведениях.*

***Ключевые слова:** высшее образование, История Узбекистана, самостоятельная работа, историческое мышление, методика, дидактика, компетенция, источниковедение, репродуктивный поиск, ИРЦ (информационно-ресурсный центр).*

***Abstract.** The article examines the issues of developing historical thinking skills and forming professional competencies of students through the design of independent study assignments in the discipline of "History of Uzbekistan" at higher education institutions*

***Keywords:** higher education, History of Uzbekistan, independent study, historical thinking, methodology, didactics, competence, source studies, reproductive research, IRC (information resource center).*

**Kirish.** Xalqaro tajribada mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari talabalarning o‘zaro muloqoti va tahliliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Amaliyotda qo‘llanilayotgan mustaqil ta’lim topshiriqlari avvaldan belgilangan aniq mezonlar asosida takomillashtirib boriladi. Dunyo oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining mustaqil ta’lim faoliyatiga asoslanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda mustaqil o‘quv topshiriqlarining mazmuni va samaradorligiga alohida e‘tibor berilib, dars jarayonida manba tahlili, keys-stadi va muammoli vaziyatlar kabi metodlardan unumli foydalaniladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasi ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda. Dars mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning tarixiy voqealarni xolis baholash va tahlil qilish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Tarixiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qo‘yilgan malaka talablari ushbu fanning metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda[1]. Innovatsion-axborot ta’limi sharoitida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda talabalarning metodik kompetentligini

rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqishni hamda ularni amaliyotga joriy etish shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi... uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Shu ma’noda oliy ta’lim tizimida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda talabalarning mustaqil ishlari orqali ularda milliy g‘oya, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish metodik jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqolada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlashga doir PQ-60-son (2021-yil 24-dekabr) hamda Vazirlar Mahkamasining ta’lim jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etishga oid 824-son (2020-yil 31-dekabr) qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga tayanildi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tizimli rivojlantirish maqsadida quyidagi o‘zaro bog‘liq metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Birinchi, tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida talabalarda tarixiy voqelikka ilmiy yondashish, o‘tmishni bugungi kun bilan bog‘liqlikda mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirildi. Ikkinchi, mazkur tahlillarni dalillash uchun manbashunoslik tahlili metodi qo‘llanildi. Bunda Axborot-resurs markazi (ARM) imkoniyatlaridan foydalangan holda, talabalarning birlamchi manbalar va arxiv hujjatlari bilan bevosita mustaqil ishlash, ma’lumotlarni saralash hamda qiyoslash mahorati oshirildi. Uchinchi, talabalarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida muammoli ta’lim metodlari, xususan, tarixiy jarayonlarga oid keys-stadi hamda muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Yakuniy bosqichda esa, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda nafaqat tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish (reproduktiv), balki mustaqil izlanish va ilmiy xulosalar yasash kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos didaktik modellari amaliyotga joriy etildi. Ushbu metodologik majmua talabalarning tarixiy ongini boyitish bilan birga, ularning mustaqil ta’lim traektoriyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida OTM talabalarning tarixiy ongini mustaqil ta’lim

topshiriqlari orqali shakllantirish, ularda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb metodik zarurati hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasi ilg‘or pedagogik-didaktik va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanmoqda. Dars mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning nafaqat tarixiy bilimlarini, balki ushbu bilimlarni tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bo‘yicha didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi[3].

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarix ta’limida kompetensiyalarni rivojlantirishda ijodiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, OTM talabalari ma’lum darajadagi tarixiy tushuncha va ko‘nikmalarga ega holda o‘quv jarayoniga kirishadilar. Shu sababli, oliy ta’lim bosqichida asosiy e’tiborni talabalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtirish hamda ularda metodik va tahliliy ko‘nikmalarni takomillashtirishga qaratish lozim. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi darslarida talabalarda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga nisbatan shukronalik va minnatdorlik hissini shakllantirish, shuningdek, tarixiy xotirani mustahkamlash fanning muhim didaktik vazifasi sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirish, madaniy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda aholini tizimli axborot bilan ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2006-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-381-son Qarori bu boradagi muhim qadam bo‘ldi. Mazkur qaror asosida tashkil etilgan Axborot-resurs markazlari (ARM) talabalarning O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishida, birlamchi manbalar va elektron resurslar bilan ishlashida asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda[4].

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil izlanishlarini tashkil etishda Axborot-resurs markazlari (ARM) strategik ahamiyatga ega. ARM shunchaki kitob saqlash maskani emas, balki talabalarning o‘quv, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini birlashtiruvchi, ularning mustaqil ta’lim traektoriyasini belgilab beruvchi zamonaviy axborot maydonidir.

Prezidentimizning 2006-yil 20-iyundagi PQ-381-sonli Qarori bilan belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ARMning tarix ta’limidagi o‘rni quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: Birinchidan, ARM talabalarning milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosidan erkin bahramand bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayon talabalarda ajdodlar merosiga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy omilidir. Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalari (elektron bazalar, internet resurslari) yordamida talabalarga O‘zbekiston tarixiga oid eng

so‘nggi ilmiy adabiyotlar va raqamlashtirilgan arxiv manbalarini yetkazib beradi, bu esa mustaqil topshiriqlarni sifatli bajarish uchun keng imkoniyat yaratadi. Uchinchi, ARM talabalarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va ularning ijodiy o‘sishi uchun qulay intellektual muhit yaratadi. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta‘lim topshiriqlarini ishlab chiqishda ARMdagi mavjud o‘quv-uslubiy majmualar (O‘UM), darsliklar va modul tizimidagi resurslardan samarali foydalanish talabaning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Demak, ARM faoliyatini OTMning akademik mustaqilligi va dars jarayonlari bilan integratsiya qilish talabalarning mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tarixi fanidan talabalarning mustaqil ishini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — pedagog rahbarligi va nazorati ostida talabada tarixiy voqelikni xolis tahlil qilish hamda mustaqil ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayon talabaning shunchaki ma‘lumot to‘plashi emas, balki tarixiy faktlarni tizimli o‘rganish orqali o‘zining intellektual salohiyatini namoyon etishini nazarda tutadi[5]. Mazkur maqsadga erishish uchun talaba mustaqil ishining quyidagi o‘zaro bog‘liq metodik vazifalari belgilab olindi: Birinchidan, talabalarda yangi tarixiy bilimlarni darsliklardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim. Bunda asosiy e‘tibor kerakli ma‘lumotlarni izlab topishning eng qulay usul va vositalarini aniqlashga qaratiladi. Ikkinchidan, ARM (axborot-resurs markazi) fondlaridagi an‘anaviy ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari hamda sohadagi so‘nggi me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash orqali axborot manbalaridan samarali foydalanish madaniyati shakllantiriladi. Uchinchi, hozirgi axborotlashgan jamiyat talabalaridan kelib chiqib, talabalarning elektron o‘quv adabiyotlari va internet tarmog‘idagi ishonchli ilmiy bazalardan maqsadli foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon berilgan o‘quv topshiriqlarining ratsional va ilmiy asoslangan yechimini belgilashda talabaga keng imkoniyatlar yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu vazifalarning tizimli bajarilishi talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki ularning tarixiy kompetentlik va mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Oliy ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tizimli tashkil etish o‘quv jarayonining uzviy qismi hisoblanadi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi talabadan nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni, balki katta mas‘uliyat va mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ham talab etadi.

Mazkur yo‘nalishda mustaqil ishni tashkil etishning quyidagi didaktik shakllari samarali hisoblanadi: Birinchidan, o‘quv dasturidagi ayrim nazariy mavzularni tavsiya etilgan ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalar yordamida mustaqil o‘zlashtirish. Bu

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”  
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

jarayonda talaba tarixiy voqelikni mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, talabalarning ijodiy fikrlashini faollashtirish uchun ularning o‘zi tomonidan shakllantiriladigan ilmiy krossvordlar, mantiqiy savollar va muammoli topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Uchinchidan, tarixiy jarayonlarni tizimlashtirishga xizmat qiluvchi turli xarakterdagi uy vazifalarini bajarish, jumladan, solishtirma-tarixiy jadvallar tuzish, xronologik xaritalar bilan ishlash va Keys-stadi topshiriqlarini yechish muhim ahamiyatga ega[6]. Bu kabi topshiriqlar talabaning amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik darajasini sifat jihatidan oshiradi. Ta’lim olish davrida joriy, oraliq va yakuniy nazorat jarayonlari talabadan materialni qayta o‘qish, umumlashtirish va tizimlashtirishni taqozo etadi. Nazoratlarga tayyorgarlik ko‘rish davrida talaba o‘zlashtirgan bilimlarini tizimli hisobot shakliga keltiradi, bu esa uning akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichini belgilaydi. Shu sababli, mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishda talabalarning individual qobiliyati va fanni o‘zlashtirish darajasini hisobga olish, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirish metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

<b>№</b>	<b>Mustaqil ishlarning shakllari</b>	<b>Mustaqil ishlarning turlari (O‘zbekiston tarixi fani misolida)</b>
1	Reproduktiv shakldagi mustaqil ishlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Fanning ayrim nazariy mavzularini darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida mustaqil o‘zlashtirish, asosiy faktlarni konspekt qilish;</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident asarlari, ma‘ruzalari, Farmon va Qarorlarining tarixiy ahamiyatini o‘rganish va tahliliy qaydlar yozish;</li> <li>• Ma‘ruzalarni video/audio (masalan, "O‘zbekiston tarixi" telekanali materiallari) orqali ko‘rish va tayanch tushunchalarni belgilash;</li> <li>• Multimedia slaydlari va tarixiy hujjatli filmlarni ko‘rish orqali vizual ma‘lumotlarni o‘zlashtirish;</li> <li>• Tarixiy xronologiya va atamalarni yod olish, qaytarish.</li> </ul>
2	Anglash-izlanish (qidirish) shaklidagi mustaqil ishlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mustaqil ravishda tarixiy xaritalar, ko‘rgazmali sxemalar va krossvordlar tayyorlash;</li> <li>• Tarixiy statistik ma‘lumotlar ustida analitik ishlarni bajarish, mavzu yuzasidan testlar yechish;</li> <li>• Seminar va amaliy mashg‘ulotlar uchun muayyan tarixiy shaxs yoki davr bo‘yicha ma‘ruzalar tayyorlash;</li> <li>• Uy vazifalari, Keys-stadi (tarixiy muammoli vaziyatlar), referat va slayd-taqdimotlarni tayyorlash hamda himoya qilish.</li> </ul>
3	Ijodiy ish shaklidagi mustaqil ishlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tarixiy mavzularda esse, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini (BMI) manbashunoslik tahlili asosida tayyorlash;</li> <li>• Talabalar ilmiy jamiyatlari va “Yosh tarixchilar” to‘garaklarida faol ishtirok etish;</li> <li>• OTM miqyosidagi ilmiy-tadqiqot loyihalarida qatnashish va hisobotlar tayyorlashda ko‘maklashish;</li> </ul>

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”  
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

		<ul style="list-style-type: none"><li>• Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar bilan chiqish, ilmiy maqolalar nashr ettirish.</li></ul>
--	--	--

**Muhokama.** Ta’lim muassasalaridagi Axborot-resurs markazlari millatning ma’naviy-tarixiy xotirasini saqlash, yoshlar o’rtasida kitobxonlik va tarixiy haqiqatni targ’ib qilishda strategik rol o’ynaydi. ARMning maqsadi nafaqat adabiyotlarni to’plash, balki ilmiy g’oyalar va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni kelajak avlodga tizimli ravishda yetkazishdan iboratdir. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi fani doirasida yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining sifati va ularning manba bazasiga alohida e’tibor qaratish metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalarini ilg’or jahon tajribasi asosida o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-sonli “Oliy ta’lim muassasalarini o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash to’g’risida”gi Qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2020-yilda joriy etilgan kredit-modul tizimi talablariga muvofiq, OTM fondlarini xorijiy ilmiy adabiyotlar bilan boyitish, ularni tarjima qilish va ekspertizadan o’tkazish tartiblari belgilandi. Bu islohotlar O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta’lim tizimi uchun sifatli o’quv adabiyotlarini yaratish va ularni muntazam yangilab borish imkonini bermoqda.

Zamonaviy Axborot-resurs markazlari (ARM) faoliyatida yuqori sifatli xizmat ko’rsatishni ta’minlash uchun, eng avvalo, sohaga ixtisoslashuv tamoyiliga tayanish lozim. Bu jarayonda ARM fondini OTM yo’nalishlariga mos keluvchi, xususan, O‘zbekiston tarixining turli davrlarini yorituvchi noyob manbalar va fundamental monografiyalar bilan maksimal darajada boyitish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bunday boy manba bazasidan samarali foydalanish esa bevosita raqamlashtirish va masofaviy xizmatlar bilan bog’liq. Talabalar uchun qulay veb-platformalar yaratish hamda arxiv hujjatlari va qo’lyozmalarning raqamli nusxalariga masofadan kirish imkonini ta’minlash ta’lim jarayonining uzluksizligini kafolatlaydi. Shuningdek, ARMning an’anaviy kutubxonadan zamonaviy intellektual “kovorking” maydoniga aylanishi talabalarning mustaqil ijodiy izlanishlari va tarixiy tahlillari uchun zaruriy muhitni shakllantiradi. Demak, ARM fondlarining raqamli transformatsiyasi va o’quv adabiyotlarining mazmunan yangilanishi talabalarning O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta’lim olish samaradorligini belgilovchi hamda ularning tarixiy kompetensiyalarini yuksaltiruvchi asosiy omildir.

Zamonaviy Axborot-resurs markazlari (ARM) nafaqat boy kitob fondi, balki ilg’or texnik vositalar bilan jihozlangan bo’lishi talab etiladi. Talabalarning O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta’lim olishi, yozma ishlar (esse, referat, kurs ishi) tayyorlashi uchun ARMda matnlarni chop etish, skanerlash, nusxa ko’chirish hamda ilmiy adabiyotlar ro’yxatini shakllantirish kabi qo’shimcha servis xizmatlari yo’lga qo’yilishi

zarur. ARMning asosiy tamoyili — foydalanuvchiga istalgan joyda, qulay shaklda va kerakli vaqtda axborot manbalarini taqdim etishdan iboratdir[7]. Shu bilan birga, kutubxona xodimlarining innovatsion xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Ular talabalarining psixologik va individual xususiyatlarini, turli millat va madaniyat vakillari ekanliklarini hisobga olgan holda xushmuomala hamda metodik ko‘mak berishga tayyor bo‘lishlari lozim. Ayniqsa, OTMga endigina qadam qo‘ygan birinchi kurs talabalarining axborotga bo‘lgan ehtiyoji yuqoriligini inobatga olib, ularni ilmiy muhitga moslashtirish, O‘zbekiston tarixi faniga nisbatan qiziqishini uyg‘otish va ijodiy salohiyatini ochib berishda ARM xodimlari maslahatchi (tutor) vazifasini bajarishlari kerak[8]. Xulosa qilib aytganda, ARMga yuklatilgan vazifalar talabalarining ilmiy tafakkurini rivojlantirish va jamiyatning ma‘naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta‘limni tashkil etishning strategik maqsadi va uni amalga oshirish usullari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlash — talabalarda o‘z ustida ishlash hamda kasbiy kompetensiyalarni mustaqil rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishning garovidir.

**Xulosa qilib aytganda**, oliy ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi fanidan zamonaviy darsliklarga bo‘lgan ehtiyoj va dars mashg‘ulotlarida qo‘llanilayotgan didaktik-metodik yondashuvlar talabalarining bilim olishga bo‘lgan faolligiga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon ta‘lim sifatini oshirish bilan birga, talabalarda mustaqil va tahliliy fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi. An‘anaviy, qat‘iy o‘quv dasturlaridan voz kechib, moslashuvchan kredit-modul tizimiga o‘tilishi universitetlar oldiga talaba bilimni baholashning yangi mezonlarini qo‘ymoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarining kursdan-kursga o‘tishi yoki mutaxassis bo‘lib yetishishi nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarish jarayonida to‘plangan akademik kreditlar va amaliy ko‘nikmalar asosida o‘lchanishi lozim. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda Axborot-resurs markazlarining innovatsion imkoniyatlaridan foydalanish, talabaning shaxsiy traektoriya bo‘yicha rivojlanishini ta‘minlaydi. Talabalarining mutaxassis sifatida shakllanishi ularning nafaqat auditoriya soatlaridagi ishtiroki, balki mustaqil ravishda manbalar ustida ishlashi, ilmiy-ijodiy faoliyati va axborot texnologiyalari yordamida tarixiy haqiqatni tahlil qila olish darajasi bilan belgilanadi. Binobarin, mustaqil ta‘limni tizimli tashkil etish va uni ARM resurslari bilan muvofiqlashtirish oliy tarixiy ta‘lim samaradorligini kafolatlovchi bosh omildir.


**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Vaqqosova M., Adizov B. Tarix fanini o‘qitishda mustaqil ta‘limni tashkil etish. – Toshkent: Universitet, 2021.

# **“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”**

*XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI*

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Kasb-hunar, 2003.
5. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2024.
6. Vazirlar Mahkamasining 824-son Qarori. (Kredit-modul tizimi haqida). 2020-yil 31-dekabr.
7. Axmedova M.E. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik. – Toshkent: 2021.
8. Dewey J. The Public and its Problems. Denver, 1927. (Djon Dyui. M., 2002).



**UNIVERSITY  
OF BUSINESS  
AND SCIENCE**